

## ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika*

*instituti 2-kurs magistranti*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishni psixologik asoslari haqida tushuntirishlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tibbiy diagnostika, kasallikka tashxis qo'yish, kar bolalarda nutqni shakllantirish, og'zaki va yozma nutq.*

Kishilik jamiyatining ilk bosqichida tibbiyotda oddiy va ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan kasalliklarga tashxis qo'yishda suyak sinishi, jarohat, qayt qilish, ich ketish, og'riqni his qilish, isitma kabi belgilarga tayanilgan. Qadimgi Misr va Hindistonda tana haroratining ko'tarilishi, yurak faoliyatini eshitish, tanani paypaslab ko'rishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, qadimgi Xitoyda tomir orqali yurak pulsini o'lchash, Gretsiyada esa tashxis qo'yish ilmiy klinik (ham tashxis qo'yish, ham davolash ishlari birga olib boriladigan) tibbiyot uchun boshlang'ich asos bo'lib xizmat qildi.

Tibbiy diagnostikaning asoschisi Gippokrat hisoblanadi. Uning tashxis qo'yish uslubi bemor holatini kasallikning dastlabki va keyingi davrdagi holatini sinchiklab o'rganish, kasallikning ayrim belgilariga ta'sir ko'rsatish, ma'lum uskuna (masalan, naycha – naysimon asbob) yordamida ichki organlar holatini tekshirish, o'pkadagi xirillash, o'pka pardasidagi ishqalanishni eshitish, jigar va taloqni paypaslab ko'rishdan iborat bo'lgan.

Tibbiyot sohasida kasallikka tashxis qo'yish borasida o'sha davrlardayoq izlanishlar olib borilgan. Xalqning boy hayotiy tajribasi, o'ziga xos davolash iqtidoriga ega shaxs (tabib, kohin)larning izlanishlari natijasida turli kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish amaliyoti ilmiy bilimlar bilan boyigan.

Uyg'onish davri, ayniqsa, VIII-XIX asrlarda tibbiyotda yangi, jumladan, harorat o'lchovchi asbob (termometr), tanaga barmoq bilan urib ko'rib eshitish (perkussiya), yurak urushi va o'pkani eshitib ko'radigan asbob (stetoskop), Laennekning eshitib ko'rish metodi va boshqa tashxis metodlari yaratildi.

Shunga ko'ra dastlab "diagnostika" tushunchasi negizida kasalliklarni aniqlashda qo'llaniladigan metodlar va ular to'g'risidagi ta'limot ifodalangan.

Zamonaviy sharoitda esa mazkur atama bemor shaxsi, u mansub bo'lgan ijtimoiy muhit, ruhiy holati, organizmining irsiy va fiziologik xususiyatlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, kechishi, organizmda kechayotgan fiziologik holatlar, organizmning tashqi muhit omillari, turli davo vositalariga ta'sirchanligi, shuningdek, davo vositalarining boshqa organlar faoliyatiga ta'siridan iborat yaxlit jarayonni hamda davolovchi vrachning kasallikni aniqlash va bemor holati bo'yicha kuzatishlari, mulohazalarini ham anglatadi.

Pedagogik diagnostikaning rivoji psixologik diagnostika bilan bog'liq va bevosita uning negizida yuzaga kelgan. Psixologik diagnostikaning o'zi XIX asrning oxiri va XX asrning

boshlarida psixologiya sohasida olib borilgan qator tadqiqotlarning g'oyalariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

Bolalarni o'qitish jarayonida turli xil holatdagi o'quvchilarga duch kelamiz. Ularni ba'zilarini ko'zi ojiz, ba'zilarini tili duduq yoki gung, ba'zilarini esa qulog'i kar bo'lishi mumkin. Xuddi shunday nuqsoni bo'lgan bolalarni alohida guruhlarga birlashtirib, maxsus maktablarda ta'lim va tarbiya berilishini hammamiz bilamiz. Quyida xuddi shunday nuqsoni bor bolalardan qulog'i eshitmaydigan kar bolalarni o'qitishning psixologik asoslarini tahlil qilib ko'ramiz.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish masalalari I.M.Solovev, F.F.Rau, J.I.Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozanova, N.G.Morozova, R.M.Boskis va boshqalarning ishlaridan anchagina to'liq va har tomonlama yoritilgan. Nutq birinchi signal sistemasiga kiruvchi eshitish analizatori bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan eshitish analizatoriga tayangan holda yoshga mos ravishda rivojlanib boradi. Kar bolalarda eshitishning buzulgabliligi sababli ularning nutqida jiddiy nuqsonlar mavjud. Eshitish analizatorining buzilish darajasi qanchalik yengil bo'lsa eshitishda nuqsoni bo'lgan bola nutqini shuncha yaxshi rivojlantirish mumkin. Zaif eshituvchilik darajasiga ko'ra ularda nutq kar bolalarga nisbatan yaxshi rivojlangan bo'ladi. Kar bolalar nutqini tizimli va izchil ravishda olib borilsa kerakli natijaga erishishi mumkin. Kar bolalar maktabga o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda imo-ishora orqali o'z nutqi bo'ladi. Ular nutqida turli agrammatizmlar, avvalo, gapda grammatik aloqalar (moslashuv, bitishuv) ning buzilishida namoyon bo'ladi. Eshitadigan bola tilning grammatik qonunlarini amalda maktabga kelishidan ancha oldin muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola muloqot, nutq amaliyoti imkonidan mahrum. Uni gapning grammatik qurilishi qonuniyatlariga maxsus o'rgatish kerak bo'ladi. Og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Eshitish tufayli bola atrofdagilar nutqini idrok qiladi, besh-olti yoshga kelib gapiradigan bola ko'pchilik tovushlarning to'g'ri talaffuzini asosan o'zlashtiradi, kattagina lug'at boyligi to'playdi. Amalda gap qurishning asosiy grammatik qonunlarini o'zlashtiradi.

Kar bola nutqni bu yo'sinda egallay olmaydi. Eshitadigan bola maktabgacha tarbiya muassasasi, maktabga asosan shakllanib ulgurgan og'zaki nutq bilan kelsa, kar bola soqov bo'lib keladi. Uning nutqini shakllantirish avval boshidan boshlanadi. Buning uchun eng avvalo, uning artikulyatsiya (talaffuz), nafas olish va ovoz apparatini tayyorlash kerak.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, kar bolaning nutqiy nafas olishi eshitadigan va normal gapiradigan bolaniki bilan solishtirganda qator o'ziga xosliklarga ega. Bunday bola zaqira qavodan foydalanish va frazani bo'lishni bilmaydi. Maxsus mashqlar yordamida kar bolada dastlab nutqiy nafas olish ishlanadi, uni chiqarilayotgan qavo oqimini to'g'ri taqsimlashga o'rgatiladi. Ovoz ustida katta tayyorgarlik ishi olib boriladi.

Kar bolalarning ko'pchiligida ovoz past, modulyatsiyalanmagan bo'ladi. Maxsus mashqlardan foydalanib, o'qituvchi kar bolani o'z ovozini boshqarishga o'rgatadi, unga modulyatsiyalangan ottenka baxsh etadi, uni normal eshitadigan bolaning ovozigacha

yaqinlashtiradi, biroq bunga to'lig'icha erishish mumkin emas. Kar odamning nutqi butun umrga o'ziga xos ottenkasini saqlab qoladi.

Bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishning juda muhim bo'limi ularni talaffuzga o'rgatish sanaladi. Har bir tovushni kar bolada sun'iy metodlar bilan chiqariladi. Sog'lom saqlangan analizatorlar: ko'rish, sezish, harakat analizatorlaridan, shuningdek, qoldiqli eshitishdan foydalanib, har xil tovush talaffuzini ko'zgu oldida namoyish qiladi va boladan taqlid orqali talaffuz qilishni talab qiladi. Bunga erisha olmasa, tovushni zond yoki shpatel yordamida qo'yiladi. Odatda, eng oson tovushlar – p, b, m tovushlaridan boshlanadi. Bir necha tovushni qo'ygandan keyin, bu tovushlardan bo'g'inlar va so'zlarni hosil qilib, ularni darhol nutqqa kiritish mumkin. Shunday qilib, asta-sekinlik bilan hamma tovushlar qo'yiladi. Tilning tovush qatlami shakllantiriladi. Kar bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatishda, shuningdek, teri va taktil-vibratsiyali sezgirlikdan ham foydalaniladi. O'qituvchi talaffuzi o'xshash tovushlar (masalan, p-b, t-d va boshqalar) dagi farqni ko'rsatish uchun kar bolaning e'tiborini ayrim hollarda bu tovush jarangsiz va vibratsiyaning yo'qligiga, boshqalarida esa jarangli va vibratsiyani gapiruvchining bo'g'ziga yoki ko'krak qafasiga qo'lni qo'yib his qilish mumkinligiga qaratadi.

Sog'lom bolalarda nutqning ikki turi mavjud. Bular:

Og'zaki nutq

Yozma nutq

Og'zaki nutq taqlid asosida birinchi bo'lib shakllanadi. Yozma nutq esa og'zaki nutq asosida shakllanib boradi.

Kar bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari sog'lom bolalarga nisbatan biroz boshqacha rivojlanib boradi. Ilk maktabga kelgan bolalar o'z ehtiyojlarini o'zi va oila a'zolari uchun tushunarli bo'lgan imo-ishora nutqidan foydalanadilar. ENB og'zaki va yozma nutq bilan bir qatorda faqat ular uchun xos bo'lgan nutq shakli "Daktil" va "Imo-ishora" nutqidan foydalanadilar.

Daktil nutqi harflarning barmoqdagi ifodasi hisoblanadi. Aynan bu nutq orqali ENB harflarni og'zaki va yozma shakllari bilan tanishadilar. O'quvchilar daktil nutqi orqali talaffuz qilib o'qishni o'rganadilar. Matnlarni o'qishda daktil nutqidan foydalanadilar. Imo-ishora nutqidan kar bolalar bir umri davomida foydalanadilar. Imo-ishora nutqi bu bir so'zni bir harakat orqali ifodalanadi.

Shunday qilib, kar bolaning og'zaki nutqini shakllantirish o'qituvchi rahbarligida maxsus tashkil qilingan ta'lim jarayonidagina amalga oshirilishi mumkin bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Nutqiy nafas olishni ishlash.

Modullangan ovozni qo'yish ustida ishlash.

Talaffuzga o'rgatish (tovushlarni qo'yish)

Labdan o'qish.

Lug'at ishi.

Grammatik qurilishni shakllantirish.

Surdopedagogning asosiy vazifasi kar bolalarni daktil yoki imo-ishora nutqiga o'rgatish emas, ularni og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф.-пед. унив-та. 2016. – 190 с.

2. Ингенкамп, Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 2001. – С. 16-17.

3. Maxsus pedagogic / O`quv qo`llanma. M.U.Xamidova Toshkent-2018. 32-37b

4.Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе / Учебно-метод.пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт.гуманит.унив-а, 2011. – 243 с.

5. Pedagogik diagnostika va korreksiya / Darslik. X.A.Rahmatova Toshkent – 2021 yil 30 b